

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 415+415.412.2+412.1

“ANSOB US-SALOTIN VA TAVORIX UL-HAVOQIN” ASARIDA IZOFIY BIRIKMALARNING QO‘LLANILISHIGA DOIR NAZARIY MASALALAR**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИЗОФЕТНЫХ СОЕДИНЕНИЙ В РАБОТЕ «АНСОБ УС-САЛОТИН И ТАВАРИХ УЛ-ХАВАКИН»****THEORETICAL ISSUES ON THE USE OF ISOPHIC COMPOUNDS IN THE WORK “ANSOB US-SALOTIN AND TAWARIKH UL-HAVAQIN”**

Usmanova Muhabbat Abdullayevna 
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mizoolim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin” asaridagi izofiy birikmalarning qo‘llanilishiga doir nazariy masalalar atroflicha tahlil qilingan. Fors-tojik tili XIX asr o‘rtalarida ham juda ko‘p elatlarning mushtarak adabiy tili bo‘lib xizmat qilib kelgan. Mirzoolim Mushrifning “Qo‘qon xonligi tarixi” asarining tili leksikasida asl turkiy so‘zlar bilan bir qatorda, fors-tojik va arab leksik qatlamlari ham ma‘lum salmoqqa ega. O‘sha davr uchun bu hodisaning adabiy norma hisoblangan. O‘rta asrlarda ijod qilgan alloma va yozuvchilar o‘z tarixiy asarlarida forscha va tojikcha so‘zlardan me‘yorida foydalanganliklarini olimlar o‘z tadqiqotlarida bayon etishgan. Shu bilan birgalikda, izofiy birikmalarning turli so‘z turkumlari doirasida ifodalanganligi, qaratqich va qaralmish, aniqlovchi va aniqlanmish bog‘lanishi va ifodalanishi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье подробно анализируются теоретические вопросы, связанные с составом изофетных соединений в работе Мизоолима Мушриффа «Ансаб ус-салотин ва таварих уль-хаввакин». Персидско-таджикский язык еще в середине XIX века служил общим литературным языком многих народов. Наряду с исконно турецкими словами определенный вес в языковой лексике «Истории Кокханского ханства» Мирзеолима Мушриффа имеют также персидско-таджикский и арабский лексические пласты. Для того периода литература об этом событии считалась нормой. Ученые и писатели, творившие в средние века, в своих исторических трудах описывали свои системы на основе персидских и таджикских слов. При этом идет речь о выражении изофетных соединений в виде групп слов, связи и выражения главного и зависимого слова, определителя и определяемого.

Abstract

In this article, the theoretical issues related to the use of isophical compounds in Mizoolim Mushrif's work "Ansab us-salatin wa tawarikh ul-hawaqin" are thoroughly analyzed. The Persian-Tajik language served as a common literary language of many peoples even in the middle of the 19th century. Along with the original Turkish words, Persian-Tajik and Arabic lexical layers also have a certain weight in the language lexicon of Mirzoolim Mushrif's "History of the Kokhan Khanate". For that period, this phenomenon was considered a literary norm. Scholars have stated in their research that the scholars and writers who created in the Middle Ages used Persian and Tajik words in their historical works. At the same time, it is thought about the expression of isophical compounds within the framework of different word groups, the connection and expression of demonstrative and object, determiner and determined.

Kalit so‘zlar: izofa, izofiy birikmalar, aniqlovchi, aniqlanmish, leksik qatlam, o‘zlashma, qaralmish, qaratqich, joy nomlari, qo‘shma so‘z.

Ключевые слова: изафет, изафетные соединения, определитель, определяемое, лексический слой, заимствованные слова, зависимое слово, главное слово, топонимия, сложное слово.

Key words: isophet, isophic compounds, determiner, definition, lexical layer, loan words, dependent word, main word, place names, compound word.

KIRISH

Fors-tojik tili XIX asr o‘rtalarida ham juda ko‘p elatlarning mushtarak adabiy tili bo‘lib xizmat qilib kelgan. Mirzoolim Mushrifning “Qo‘qon xonligi tarixi” asarining tili leksikasida asl turkiy so‘zlar bilan bir qatorda, fors-tojik va arab leksik qatlamlari ham ma‘lum salmoqqa ega ekanligi ma‘lum. O‘sha davr uchun bu hodisaning adabiy norma ekanligini, o‘rta asrlarda ijod qilgan alloma va

TILSHUNOSLIK

yozuvchilar o'z tarixiy asarlarida forscha va tojikcha so'zlardan me'yorida foydalanganliklarini olimlar o'z tadqiqotlarida bayon etganlar. Tojik tili "turkigo'y" aholi orasida keng tarqalganligi va ularning tojik tilida bemalol gaplasha olganligi mutahassislar tomonidan e'tirof qilingan. Tabiiyki, jonli so'zlashuv tilida mavjud bo'lgan ikkitalik adabiy tilga ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Ana shu ijtimoiy-lisoniy sharoit tufayli o'zbek tiliga tojikcha leksik va frazeologik vositalar bilan bir qatorda ayrim fors-tojikcha morfologik elementlar, ya'ni affikslar ham o'tib o'zlashgan. Shulardan biri izofa hodisasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asarning boshlanishida izofiy birikmalardan turli so'z turkumlari doirasida qo'llanilgani ifoda etilgan:

Sanayi 1292 (bir ming ikki yuz to'qson ikki) tarixda **firqayi Rossiya** xuruj ayladi va **Farg'ona** mamlakatlarini taxti tasarrufig'a oldi. (8-bet)

Izofa aniqlanmish bilan aniqlovchi, qaralmish bilan qaratqich o'rtasidagi bog'lanishdir. Quyida keliriladigan jumlada ot+sifat, ya'ni aniqlovchi bilan aniqlanmish o'rtasidagi izofiy bog'lanish borligiga guvoh bo'lamiz:

"Andin bir **farzandi arjumand** yodgor qoldi, shoh Umatvali derlar (15-bet)

Abdulazizxon Buxoro birla **irodai baytulloh** qilib, **ziyorati baytulloh** qilib kelib erdi (15-bet).

Endigi misollarda "taxti saltanat" izofiy birikmasining asarda qo'llanishiga misollar keltiriladi:

Taxti saltanatda o'lturub, o'n uch yil podshohlig' qilib, qirg' yoshda olamdin o'tti (15-bet).

Taxti saltanatga o'lturdi ersa, daf'atan qo'shun tortib, bir kechada Xo'jandga doxil bo'lub, Muhammadrahim Otoliq qirg'izning o'g'li Oqbo'tabiy qatl aylab va yana ikki o'g'lini qatl etib, Xo'jand hukumatini ukasi Abdukarimbekka tafviz qildi va kichik ukasi Shodibekg'a Marg'inon hukumatini berdi. Askar jam aylab, Samarqand ustig'a borib fath aylab, andin o'tub Kattaqo'rg'onni fath aylab, Shahrizabzg'a mutavajjih bo'ldi. (15-bet)

Andog'kim, zamonikim Abdukarimbek ibn Shahruxbiy **taxti saltanatda** bilistiqlol o'lturub, xaloyiqqa yaxshi muomala qilib, sipoh tarbiyatig'a sa'yi ko'shish ayladi(16-bet)

Quyida keltirilgan jumlada ham "taxti saltanat" izofiy birikmasiga sinonim bo'lgan "taxti muvarrasa" ishtirok etadi. Bu izofiy birikmaning tajimasi "vorisiy taxt, meros qolgan taxt" demakdir:

Andin Shahruxbiy degan yodgor qoldi. **Taxti muvarrasag'a** o'lturub dodi adl birla hukmronlik qilib, yigirma uch yil podshohlik qilib, ellik olti yoshda olamdin o'tti. O'g'li Rustamxon taxti saltanatga o'lturdi(15-bet).

Shul zamonda Xitoy xuruj aylab yetti. **Shahri Koshg'arni** oldi(16-bet)

Zamoniki Xitoy Qoshg'arni olg'ondin keyin, **jamoatan qalmoq** va **koshg'ari** va **jamoai tog'lik** qochib kelib, Xo'qandda mutavattin bo'ldi va yana Samarqand qahtlik bo'lub, necha jamoa mulk-joylarin tashlab, Xo'qand kelib mutavattin bo'ldi ersa, bulami «g'alamis» deb tarix topqondurlar, bir ming yuz o'ttuz ekan.

Daf'atan Fozilbiy ibn Sodiqliy yuz hokimi O'ratepa askari bilan o'tlanib, sur'at birla doxili Xo'qand bo'ldi. Abdukarimbek haddin afzun xursand bo'lub, mehmondorlik qildi. Erta birlan urushqa chiqtilar, necha qalmoqni qatl aylab, savobi g'azog'a musharraf bo'lub, bilaxir, maslahat topib, masoliha talab qilib, elchi chiqardilar(17-bet).

Diqqat bilan asarni o'qib chiqadigan bo'lsak, unda ma'lum bir sana yoki son bilan bog'liq voqealar izohi ham ko'pincha izofa orqali ifoda etiladi. Jumladan:

Miqdori qirq-ellik odam Namangon hokimig'a ko'runush qilg'on hamono, ulami hibis qildi(19-bet).

Muddati ayyomi hukumati o'n ikki yil, muddati hayoti qirq yil.(18-bet). Mazkur misolda Abdukarimbekning hukumatni o'n ikki yil boshqargani va qirq yil umr ko'rgani haqida ma'lumot keltirilgan. Ya'ni ushbu jumlada ham tarixiy voqea haqida keltirilgan ma'lumot izofiy zanjir orqali yoritilgan.

Yana shunisi muhimki, "Qo'qon xonligi asarida" xonlar tavalludi va vafoti ham izofiy bog'lanishlar orqali yoritib beriladi. Masalan Abdukarimbekdan so'ng xon etib saylangan Erdonaxonning vafoti haqida ushbu misolga diqqatingizni qaratmoqchimiz:

Erdonaxon muddati o'n to'rt yil xonlik qilib, qirq ikki yoshda foni y dunyodin **olami boqiyg'a** rixlat qildi...(18-bet).

Abdukarihxong'a **bayoni voqeani** arza qildi (19-bet)

Anbuhi lashkar jangi qipchoqlarg'a ma'lum bo'ldi ersa, shoshib va sarosima o'tlanib, saf torttilar. Lashkari Abdukarimxonga **xudovandi karim** zafar va nusrat ato qildi. Bayakboraki, ot qo'yub qipchoqlarni **kushtai pushtalar** qilib, qolg'oni qochib parokanda bo'lub ketti(17-bet).

Quyidagi misolda esa izofiy bog'lanish tarkibida qo'shma so'z borligi, shuningdek joy nomlari ishtirok etgan so'zlar izofa orqali bog'langanligi bilan diqqatga sazovorlidir:

Umarxondin qolg'on **vaziri sohibtadbirlar** maslahati birla hukmronlig' qildi ersa, ulug' davlatlig', azim eshon podshoh bo'ldikim, atrofidagi podshohlar, chunonchi **amiri Buxoro** va Urganch iztirobda erdi va Xitoy yurtidin boj oldi. **Dashti qipchoq** tasarrufida erdi. Badaxshon va Ko'lobdin tortuq olur erdi, Qarotegin tasarrufida erdi (20-bet).

Bilamizki Umarxondan ikki o'g'il: Muhammadalixon va Sulton Mahmud qolgan. Quyidagi jumlada ishtirok etgan izofaga misolni o'ziningina emas, balki butun bir matnning o'zini misol keltirmoqchimiz. Chunki unda keltirilgan ma'lumot kitobxonni befarq qoldirmaydi, deb umid qilamiz:

Muhammadalixon Sulton Mahmudxon ukasi birlan Yormazor haddig'acha borib, yana iloj topmay, aka-uka bo'yunsunub, Boturxon xizmatig'a kelib duo qildilar ersa, ba'zilar **debdurlarki**, Andijondin nari Oyim qishloqqa borib, tong otquncha Oyimqishloqdin boshi aylanib, qorni och va tashna bo'lub, bir kampir uyig'a tushub atalla qildurub ichib, uxlab tong otib qolibdur. Erta birlan kampir masjidga borib yurtg'a xabar beribdurki:—Mening uyumga xon kelib yotibdur,— deb. O'shal qishloq katta-kichik hammalari nomozdin chiqib kelib to'xtatibdur. Orqalaridin sipohlar borib, ushlab olib kelib, amir Boturxong'a manzur qildilar ersa, o'shal kecha Zarrin degan xos imoratig'a olib kirib, aka va uka va Muhammadaminbek o'g'li uchallasini **darajai shahodatga** yetkurdi va yana onasi Mohlaroyimni va Xushholbibi va Norbibi va bir zaifani — to'rt adad **zaifai bechoralarni** axtaxonada **darajai shahodatga** yetkurub va yana necha bekdodalarni shahid qildi(21-bet).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, izofaga oid so'zlar takroran uchraydi, shuningdek, "zaifai bechoralar" izofali bog'lanishi orqali bechora zaifalar, ya'ni ayollar nazarda tutilmoqda.

Quyida esa tarixiy shaxslardan yana biri Mahdum Hoziq Jo'nayid haqida izoh keltirilgan bo'lib, bu izoh nazmiy usulda berilgan:

Nazmi Hoziq:

Buridi bar **qadi xud** az malomat,

Libosi to ba **domoni qiyomat**.⁸³

Mahdum Hoziq Jo'nayid haqida, to'g'rirog'i uni o'ldirish uchun zindondagi bir o'g'riga Buxoro amirining so'zlari bitilgan izofiy birikmaga yana quyidagi misolni keltirishimiz mumkin:

Amiri Buxoro darg'azab bo'lub, necha muddatdin beri Dushaboy degan bir o'g'rini zindon qilib qo'yub erdi, ani chiqarib farmoyish qildikim, "sen agar Maxdum Jo'nayidni va eshon Shofeni boshlarini olib kelsang, banddin ozod qilaman", - dedi. (22-bet)

Quyidagi keltirilayotgan misolda esa Qo'qon (Xo'qand) ahlini talon-taroj qilgani bilan bog'liq voqea izofa orqali bayon etiladi:

Andog'ki, zamoniki Bahodirxon **qatli toroj** qilib, Xo'qand elining to qiyomatg'acha ko'ngildin ketmas kulfat va ozorlar berib, Ibrohim Xayolni hokim qilib ketti ersa, Xo'qanddin bir necha hushyor va oqil odamlar maslahat qilib, **jamoai qirg'iz** va qipchoq va turk va qoraqalpoq va tojik va junbog'ish tog'liq va afg'on va alqorlar so'z bir- birg'a qo'yub,...(21-bet)

Asarda o'zbek tiliga o'zlashib, "astoydil" ma'nosida keluvchi "az tahte del" izofiy birikmasi ham ko'plab uchraydi. Masalan:

Hamma xaloyiq **az tahti dil** taraddudg'a tushdilar (22-bet)

Quyidagi jumlada ham "az tahte del" (astoydil) izofiy birikmasi qo'llangan holatni kuzatish mumkin:

Alamzada merganlar **az tahti dil** birlan chunon miltiq birla otib berdilar(23-bet)

XULOSA

O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, buyuk shoir va adiblar tomonidan yaratilgan bebaho, nodir va noyob asarlari o'zining ilmiy, madaniy, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Asar bo'yicha ilmiy-nazariy izlanish natijasi shuni

⁸³ Mazmuni: O'z qaddingga la'natlardan shunday bir libos tikib kiydingki, u libos ustingda qiyomatgacha qoladi.

TILSHUNOSLIK

ko'rsatib turibdiki, Mirzaolim Mushrifning "Qo'qon xonligi tarixi" asari XIX asr eski o'zbek tilini va tarixi o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. E. A. Василевская. Словосложение в русском языке (Очерки и наблюдения), М., 1962, стр. 5
2. A. G'ulomov, O'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqida, – A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti asarlari. Birinchi kitob. O'zbek tili grammatikasidan materiallar. Toshkent, 1949, 52-bet.
3. Э. А. Земская. Современный русский язык. Словообразование, М., 1973, стр. 170-171.
4. Qarang: Н.Г. Милицкая. Система наименования у коренного населения города Ташкента «Известия Среднеазиатского комитета по делам музеев и охраны памятников страны искусства и природы», вып. третий, Ташкент, 1928, стр. 243.
5. A. Matg'oziyev. XIX asr o'zbek tilining morfologiyasi. Toshkent 1997, 57-bet.
6. A.H.Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка, стр. 131-132.
8. Usmanova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy salohiyatini rivojlantiruvchi omillar. – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Farg'ona-2020, 43-45-betlar.
9. M. Usmonova Sh. Karimova. IMAGES OF LOVE FOR THE HOMELAND IN THE POETRY OF Z.M. BABURA. – "The role and importance of Zahiriddin Muhammad Babur in the development of world science and culture" materials of the republik scientific conference. - Scientific publication. - Ferghana: FSU, 2023. – 1098
10. Maftuna, G., Muhabbat, U., & Abdumalik, S. (2022). The Method of Onomastic Conversion in the Formation of Toponimes in the Fergana Region. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 451- 456.
11. O'rinboyeva E'zozxon, Jo'raboyeva Gulruh (PhD), Usmonova Muhabbat, Saminov Abdumalik (PhD), - Representative Relation And Expression Of The Semantic Methodological Task In The Number Category. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 87-91
12. M.Usmanova «ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ТАРИХИ» АСАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ТАКРОП СЎЗЛАР ТАҲЛИЛИ" —The actual problems of filology materials of the international scientific conference. – Scientific publication. – Ferghana: FSU, 2022. – 61-63
13. H. Jo'rayev, M. Usmonova, "YURT SOG'INCHI VA AYRILIQ MOTIVLARINING BADIY TALQINLARI"—ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, VOLUME 3, ISSUE 6.
14. M.Usmanova "O'zbek tili manbalarida arabcha o'zlashmalar("Qo'qon xonligi tarixi" asari misolida)" – "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi konferensiya materiallari, Toshkent - 2021.— 82-bet.
15. M.Usmanova "Qo'qon xonligi asarida qo'llanilgan derivatsion formantlar" – Amaliy tilshunoslikning fanlararo masalalari: masofaviy ta'limdagi muammolar va ularning yechimlari, Farg'ona- 2021. – 52 -bet.